

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN JAMOADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida jamoada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Jamoada hamshiralik ishi

1. Jamoada hamshiralik ishi (hamshiraning universal progressiv modeli) fanining maqsad va vazifalari
2. Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini. Oilaviy tibbiyot. Dispanserizatsiya. Skrining. Kasb kasalliklari.
3. Patronaj xizmatining universal progressiv modeli. Patronaj hamshirasi faoliyati.
4. Oila a'zolarining salomatligi. Qariyalar salomatligini himoya qilishda patronaj hamshirasining o'rni.
5. Bexatar onalik. Homilador ayollar bilan ishlash. Reproduktiv salomatlik va reproduktiv huquq.
6. Onalar va bolalarga kasalliklarning oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish.
7. Xavfsiz immunizatsiya. Profilaktik emlash vaqtidagi muloqot.
8. Maktab yoshdagi bolalarni salomatligini himoya qilishda hamshiraning o'rni. Uy muhiti va xavfsizlik.
9. Ruhiy salomatlikni himoya qilishda hamshiraning o'rni.

10. Jamoada yuqumli kasalliklarni oldini olish va salomatlikni himoya qilishda hamshiraning o'рни.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Jamoadagi hamshiralik ishi (hamshiraning universal progressiv modeli) fanining maqsad va vazifalari	Jamoadagi hamshiralik ishining maqsadlari va vazifalari, sog'liqni saqlash tizimi va jamoadagi tibbiyotning xususiyatlarini, hamshiraning universal progressiv modeli haqida tushunchasini, jamoada universal va ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni tashkil etishni, uy sharoitida hamshiralik jarayonini qo'llash, jamoadagi aholini sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashda patronaj hamshiraning o'рни, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish usullarini, jamoada patronaj hamshirasining etika va deontologiyasini bilishi.	10 %	4 ta
2	Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini. Oilaviy tibbiyot. Dispanserizatsiya. Skrining. Kasb kasalliklari	Sog'liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy sanitariya yordamini tashkil etish va oilaviy poliklinikada hamshiralarning o'rnini, birlamchi tibbiy yordam va uning turlarini, oilaviy tibbiyot tushunchalarni, oilaviy tibbiyotda patronaj hamshiraning o'rnini, dispanserizatsiya, uni tashkil etish va unga oid hujjatlarni yuritishni, aholi orasida dispanser ko'rigini o'tkazishda qatnashishni, dispanser ko'rigining maqsadlari va dispanser ko'rigining bosqichlarini, skrining, uning afzalliklari va kamchiliklarini, kasb kasalliklari va ularda dispanserizatsiyani bilishi	13 %	5 ta
3	Patronaj xizmatining universal progressiv modeli. Patronaj hamshirasi faoliyati	Patronaj xizmatining universal progressiv modeli haqida tushuncha va unga qo'yiladigan talablarni, birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo'yicha patronaj hamshiralarning ishini tashkil etishni, patronaj xizmatining universal progressiv modelining asosiy tamoyillari va kutiladigan natijalar, hamshiraning universal progressiv modeli haqida tushuncha va uni tashkil etishni, patronaj hamshiraning kunlik	13 %	5 ta

		bajaradigan ishlari va tashrifni rejalashtirishni biladi. Homilador, tuqqan ayol va 5 yoshgacha bolalari bo‘lgan ota-onalarning ehtimoliy ehtiyojlarini, patronaj hamshirasining hujjatlarini, patronaj xizmatining universal-progressiv modeli sxemasi (hamshira tomonidan bajariladigan xonadonga patronaj tashriflar)ni, uyga tashrif buyurishni rejalashtirish. Patronaj hamshirasi “sumkasini” tayyorlash. Jamoadagi aholi salomatligi va hamshiralik parvarishidagi muammolarni aniqlashni bilishi.		
4	Oila a‘zolarining salomatligi. Qariyalar salomatligini himoya qilishdan patronaj hamshirasining o‘rni. Bexatar onalik. Homilador ayollar bilan ishlash. Reproduktiv salomatlik va reproduktiv huquq	Oila salomatligida hamshiraning o‘rni va faoliyatini biladi, oilani to‘g‘ri tashkil qilish (irsiy, jinsiy va oilaviy omillar), salomatlik darajasini aniqlash, uning ko‘rsatkichlarini, jamoat salomatligi mezonlarini, kasalliklarni oldini olishning 5 ta bosqichi (salomatlikni yaxshilash, spetsifik profilaktika, kasallikni boshlanish bosqichlarida aniqlash va davolash, asoratlarni oldini olish, rehabilitatsiya), sog‘lom turmush tarzi va uning shakllarini bilishi. Ovqatlanishni to‘g‘ri tashkil etishni, sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini, qariyalar patronajining xususiyatlarini, gerontologiya va geriatriya tushunchalarini, keksalik va qariyalik muammolarini aniqlashni, qariyalarni parvarishlashda hamshiralik jarayonini qo‘llashni, qari va keksa yoshdagi bemorlarning rehabilitatsiyasini haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Bexatar onalik va antenatal parvarish tushunchasi, tug‘ruqdan oldingi patronajni, homilador ayolning hayotiga xavf soluvchi omillarni, homilador ayollar bilan ishlashda beriladigan tavsiyalarni, qo‘shimcha parvarishga muhtoj ayollar, Homilador ayolning ovqatlanishi, oila, chilla davridagi ayol va ilk yoshdagi bolalarda xavf omillarini aniqlashni, oila, chilla davridagi ayol va ilk yoshdagi bolalar uchun beriladigan tavsiyalarni, reproduktiv salomatlik va reproduktiv huquqni, kontratseptiv vositalarning zamonaviy usullarini bilishi.	20 %	8 ta

5	Oila farovonligi va bola tarbiyasi. Onalar va bolalarga kasalliklarning oldini olish bo'yicha patronaj xizmatini ko'rsatish	Oila farovonligi omillari. Bola tarbiyasida oila muhitining ahamiyati. Rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar. Ota/onadagi depressiya va xavotirga asoslangan ruhiy buzilishlarga ta'sir etuvchi faoliyat turlari. Depressiya bo'yicha Edinburg shkalasi. Bolalarni ijobiy tarbiyalashning 5 ta asosiy ustunlari. Xavfni kamaytiruvchi omillar. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlarning tamoyillari. Yangi tugilgan chaqaloqlar, kichik va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar orasida keng tarqalgan muammolar. Tarbiya usullari va intizom. Oilaning salomatligini mustahkamlash borasidagi patronaj hamshirasining vazifalari. Patronaj hamshirasining hayoti qiyin bo'lgan jamiyatning guruhi – qiyinchilikka uchragan ota-onalar va oilalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Kasalliklarning chilla davridagi ayol va ilk yoshdagi bolalar hayotiga xavf soluvchi belgilarini aniqlash. To'g'ri ovqatlanish tamoyillari. Ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari. Ko'krak suti bilan boqish uchun bolani to'g'ri joylashtirib olish usullari. Teri teriga aloqa. Ko'krak sutini sog'ish usullari. Emizikli ona uchun to'yimli ovqatlanish ahamiyati. Bolalarni rivojlanish monitoringi. Vazni kam va bemor chaqaloqlarni uy sharoitida parvarishlashda oilalarni qo'llab-quvvatlash. Bolalar infeksiyasini oldini olish. Bolalar kasalliklarini integrallashgan usulda olib borish. Birinchi tibbiy yordam ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
6	Xavfsiz immunizatsiya. Profilaktik emlash vaqtidagi muloqot	Emlash haqidagi asosiy ma'lumotlarni, boshqariladigan yuqumli kasalliklarni epidemiologik nazorati profilaktik emlashni rejalashtirishni, profilaktik emlashlar milliy taqvimini, boshqarib bo'lmaydigan infeksiyalar haqida tushunchani, profilaktik emlashni tashkillashtirish va o'tkazilishida patronaj hamshirasining rolini biladi. Milliy profilaktik emlash jadvali, bolada emlash bilan bog'liq muammolarni aniqlashni, emlashning afzalliklarini, emlash	7 %	3 ta

		jarayonida shaxslarni tushunish uchun faol tinglashning ahamiyatini, emlashda shaxslararo muloqotdan foydalanishni, emlashlarga bo‘ladigan qarshi ko‘rsatmalarni, emlashdan keyin yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlar (reaksiya va asoratlar)ni, patronaj hamshirasi tomonidan emlash o‘tkazilgandan so‘ng amalga oshiriladigan ishlar tartibini, erta tug‘ilgan chaqaloqlarni emlash qoidalari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.		
7	Ruhiy salomatlikni himoya qilishda hamshiraning o‘rni	Jamoadaholining ruhiy salomatligini saqlash va uni himoya qilishni, aholining ruhiy salomatligini saqlashda hamshiralik jarayonini, ruhan o‘z-o‘zini boshqarish tushunchasi va uning salomatligiga ta‘sirini, ruhan o‘z-o‘zini boshqarish usullari va ularni ahamiyatini, bemor oilasiga ruhiy yordam ko‘rsatishni, uy sharoitida autogen mashg‘ulotlar o‘tkazishni, tibbiy hujjatlarni yuritish va ishni baholash haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	2 %	1 ta
8	Jamoadayuqumli kasalliklarni oldini olish va salomatlikni himoya qilishda hamshiraning o‘rni	Yuqumli kasalliklarning paydo bo‘lish nazariyasi va tibbiy statistikani, ORVI, COVID-19, OITS etiologiyasi, epidemiologiyasi haqida ma‘lumotni, yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan bemorlarni parvarish qilish maqsadi va hamshiraning vazifalarini, yuqumli kasalliklarning asosiy xususiyatlarini, epidemiologik anamnezni, virusli hepatitlarning B, C, D turlari haqida tushunchalari, epidemiologik nazoratni, infeksiya o‘chog‘ida o‘tkaziladigan choratadbirlarni o‘rgatishni, yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida profilaktik emlashlarning ahamiyatini, parenteral muolaja o‘tkazishda shaxsiy himoya choralari qo‘llashni uy sharoitida sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilish bo‘yicha suhbat o‘tkazish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	20 %	8 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	62 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	28 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	10 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. R.E.Giyasova, D.X.Dadamuhamedova “Yuqumli kasalliklar va infeksiyon nazorat” Turon nashriyoti 2022 yil.
2. A.Gadayev, M.F.Ziyayeva va R.To‘rakulova “Terapiya” “Yosh avlod matbaa” 2022 yil.
3. S.R.Hakimho‘jayeva, D.A.Nabiyeva “Tibbiyot kasbiga kirish” “Yosh avlod matbaa” 2022 yil..
4. Ziyaeva M.F., Rizaeva O.Z. «Bolalarda hamshiralik parvarishi», Toshkent, 2016 yil.
5. Ziyaeva M.F, Xodjasheva M.D. «Kattalarda hamshiralik parvarishi», Toshkent «NISO POLIGRAF», 2014 y.
6. Ziyaeva M.F, Xodjasheva M.D «Qariyalarda hamshiralik parvarishi», 2014 y.
7. Yunusjonova Z.S., Mirzaeva S.A. «Psixologik parvarish», «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», Toshkent -2014 y.
8. Arslonov. Y.L. «Ichki kasalliklar». Toshkent, «ILM ZIYO» nashriyoti, 2013 y.
9. Allayarov Ya.N. «Akusherlikva ginekologiya», «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», Toshkent- 2013 y.
10. Shukurov H.I., Qanoatov S.Q. «Jamoada hamshiralik ishi», Toshkent, 2013
11. Zokirova K.O‘., To‘xtamatova D.O‘., Mirzabaeva S.A. «Hamshiralik ishi asoslari», Toshkent «Ilm Ziyo», 2012y.
12. Aripova.S.M, Bo‘rixo‘jaeva N.S «Sog‘lom avlodning tibbiy-ijtimoiy asoslari», «VORIS NASHRIYO‘T», Toshkent -2012 y.
13. Musaboev E.I., Bayjanov A.K. OIV infeksiyasi va uning kasb orqali yuqish profilaktikasi. Toshkent, 2008yil.
14. Ye.I.Musaboev, A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va parazitologiya”. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil.
15. Ziyaeva M.F. «Jarrohlikda hamshiralik ishi», Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. UNICEF. “Aholi orasida emlash masalalarini joriy etishda shaxslararo muloqotning ahamiyati. Toshkent – 2022 yil.
2. UNICEF. “ Profilaktik emlash tizimida uzluksiz sovuqlik zanjiri”. Toshkent 2020 yil.
3. «5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘sishi va rivojlanishi». Bolalarni o‘sishini baholash bo‘yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan va O‘zbekiston

Respublikasi mutaxassislar tomonidan moslashtirilgan o'quv kursi. UNICEF.Toshkent. 2013 yil

4. «Onalarga bolalarni ovqatlantirish va parvarish bo'yicha tavsiyalar». Bolalarni o'sishini baholash bo'yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi mutaxassislar tomonidan moslashtirilgan o'quv kursi. UNICEF.Toshkent. 2013 yil.

5. «Qiz bolalarni o'sishini baholash va kuzatish hamda ko'rsatkichlarini bolaning rivojlanish tarixiga kiritish». Bolalarni o'sishini baholash bo'yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi mutaxassislar tomonidan moslashtirilgan o'quv kursi. UNICEF. Toshkent. 2013 yil.

6. «O'g'il bolalarni o'sishini baholash va kuzatish hamda ko'rsatkichlarini bolaning rivojlanish tarixiga kiritish». Bolalarni o'sishini baholash bo'yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi mutaxassislar tomonidan moslashtirilgan o'quv kursi. UNICEF. Toshkent. 2013 yil.

7. «Bola sog'lom bo'lsin desangiz». Bolalarni o'sishini baholash bo'yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi mutaxassislar tomonidan moslashtirilgan o'quv kursi. UNICEF.Toshkent. 2013 yil.

8. «Ko'krak suti bilan emizish bo'yicha maslahat olib borish». Bolalarni o'sishini baholash bo'yicha JSST tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi mutaxassislar tomonidan moslashtirilgan o'quv kursi. UNICEF. Toshkent. 2013 yil.

9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2014 yilda 1 avgustdagi 2221-sonli 2014-2018 yillarda «O'zbekistonda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash, onalar, bolalar va o'smirlar sog'lig'ini muhofaza qilish borasidagi davlat dasturi to'g'risida»

10. Shodiev N.Sh, Shodieva S.X. Yuqumli kasalliklar fanidan amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2009 yil.

11. Gavi "Birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo'yicha patronaj hamshiralar ishini tashkil etish" Tibbiyot xodimlari va tibbiy ta'lim muassasalari uchun amaliy qo'llanma. 2020 yil